

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD 03/30.12.2019 Psi.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI**

**IKROMOVA SITORA AKBAROVNA**

**O‘SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN  
MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANISHINING IJTIMOYIY-  
PSIXOLOGIK OMILLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (PhD) философии по  
психологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in  
Psychological Sciences**

**Ikromova Sitora Akbarovna**

О'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet  
shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari ..... 3

**Икромова Ситора Акбаровна**

Социально-психологические факторы формирования у подростков  
идеологического иммунитета к деструктивной информации ..... 21

**Ikromova Sitora Akbarovna**

Socio-psychological factors of forming of ideological immunity  
to destructive information in adolescents ..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 46

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD 03/30.12.2019 Psi.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI**

**IKROMOVA SITORA AKBAROVNA**

**O‘SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN  
MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANISHINING IJTIMOYIY-  
PSIXOLOGIK OMILLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Fan doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/P497 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro psixologiya va xorijiy tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Baratov Sharif Ramazanovich**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Uteberganov Marat Xudoynazarovich**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Jabborov Xazrat Xusenovich**  
Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD 03/30.12.2019.Psi.72.06 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel: (+0365) 221-29-14; faks (+0365) 221-27-57; e-mail: [buxdu.rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu.rektor@buxdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel: (+0365) 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.M. Nazarov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Sh.Sh.Rustamov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, psixologiya fanlari falsafa doktori  
(PhD)

**A.A. Xuseynova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari  
doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda bugungi kunda axborotlar oqimining ortib borishi shaxsning muhofazasi bilan bog'liq fanlar oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. «Axborot maydonidagi destruktiv ma'lumotlar va kiberjinoyatchilik, kiberterrorchilik xurujlarini kuchayib borishi, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi, Yevropa Kengashi, Shanxay hamkorligi tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va boshqa tashkilotlar tomonidan qayd qilingan statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi vaqtda 7 milliardga yaqin odamlar (dunyo aholisining 95%) elektraloqasining ko'chma tarmoqlari bilan qamrab olinganligini<sup>1</sup>, yiliga kiberjinoyatchilik oqibatida yetkazilgan moddiy zararining miqdori dunyo yalpi ichki mahsulotining 1% ni tashkil etishini ko'rsatmoqda». Dunyodagi jarayonlar shaxslarda turli xil axborotlarga nisbatan immunitet shakllantirish, ularga ta'sir etuvchi turli xil ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahonda axborot maydonida mutlaq hukmronlik qilayotgan SNN (Si-En-En - Cable News Network, USA), Yevronyus (16 tilda), Assosheyted Press (Associated Press, AP, USA, New York), Yunayted Press Interneshnl (United Press International, UPI), Reyter, Frans-Press (Agence France-Presse, AFP), ITAR-TASS, Rossiya Federatsiyasi, Sinxua («Yangi Xitoy» Agentligi), Anadolu (Anadolu Agency) kabi agentliklar tomonidan «Ommaviy axborotlar» shaxslarga ochiq axborot tizimlari orqali yetkazib berilmoqda<sup>2</sup>. Jumladan, 2021 yilning yanvar holatiga ko'ra, dunyodagi jami aholining (7,83 mlrd.) 66,6 foizi mobil aloqadan, 59,5 foizi internetdan va 53,6 foizi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib, butunjahon pandemiya sharoitida ularning aksariyati, ayniqsa yoshlar, o'zlarining asosiy vaqtlarini axborot tarmoqlariga sarflashganliklari qayd etilgan. Bunday holatlar o'z navbatida yoshlar hayotiga daxldor bo'lgan masalalarga alohida e'tibor qaratish zarurati dolzarblashmoqda. Shu maqsadda, yosh avlodni turli destruktiv axborotlar girdobiga duch kelishlarida ularda mazkur destruktiv axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda aholiga ishonchli, sifatli axborot yetkazish, ta'lim muassasalarni zamonaviy kommunikatsion vositalar bilan ta'minlash, sohada innovatsion axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, ochiq axborot tizimlarini tubdan takomillashtirish, jamiyat hayotini boshqarishda axborot mahsulotlarini tayyorlash sifati va darajasini muntazam oshirib borishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilmoqda va «...yoshlarni kiberxavfsizlik asoslari bo'yicha o'qitilishini ta'minlash...» ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Buning natijasida yoshlarni destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetini ta'minlashda zarur bo'ladigan shaxs xususiyatlarini qaror toptirish, ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishning psixologik mexanizmlariga asoslangan empirik tadqiqotlar olib borish zaruriyati mavjud.

---

<sup>1</sup>[http://www.itu.int/net/pressoffice/press\\_releases/2016/pdf/30-ru.pdf](http://www.itu.int/net/pressoffice/press_releases/2016/pdf/30-ru.pdf) (International Telecommunication Union)

<sup>2</sup> [https://tech.liga.net/technology/Most visited sites in, year 2021](https://tech.liga.net/technology/Most%20visited%20sites%20in%20year%202021)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlarda, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son «Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-son «Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida»gi Qarorlarda hamda faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Destruktiv axborotlarga qarshi mafkuraviy immunitet shakllanishi va axborot xavfsizligi muammosining nazariy-metodologik masalalari, ochiq axborotlar tizimi, psixologik himoya, yoshlar hamda virtual olam, destruktiv xulq, kompyuter o‘yinlariga qaramlikni psixologik diagnostikasini amalga oshirish, korreksiya qilish, o‘smirlik yoshida kompyuter o‘yinlariga qaramlik kabi masalalar respublikamiz olimlaridan Sh.R.Baratov, N.M.Dalimova, X.X.Jabborov, V.M.Karimova, L.A.Nigmatulina J.J.Obloqulov, S.Y.Qulatova, M.Qur‘onov, U.D.Qodirov, I.I.Raximova, R.S.Samarov, B.S.Shukurov kabilar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan Z.Bjezinskiy, V.Druzin, G.Grachev, F.Kazin, Y.Karseva, S.Kara-Murza, A.Karayani I.Kolotilova, A.Morozov, S.Rastorguyev, R.Xarris, I.Zasurskiy, A.Zinovev, S.Zelinskiy, L.Shabanov, R.Chaldini va boshqalar ishlarida destruktiv axborotlarni turlari va ta‘sir shakllari o‘rganilgan.

Xorij olimlaridan R.O.Anker, P.E.Bertazzi, J.F.Dubiel, T.N.Disbelief, N.S.Endler, G.Gigerenzer, J.H.Girard, R.H.Knapp, H.D.Laswell, C.R.Marmar, T.J.Metzler, J.D.Parker, H.M.Ronfeldt, J.L.Speech, O.Y.Yokoyama, D.S.Weiss, R.S.Witty va boshqalar tomonidan axborot muhiti, axborot xavfsizligini ta‘minlashda darajaviy yondashuvning ahamiyati, axborotni idrok etishda tashqi omillarning ta‘siri kabi dolzarb masalalar tadqiq etilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlarda o‘smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetning shakllanish muammosi tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F1-

002-raqamli «Yoshlarda milliy g'oya va mafkuraviy immunitet shakllantirishning psixologik mexanizmlari» mavzusidagi fundamental loyihalari doirasida bajarilgan (2017-2020 yy.).

**Tadqiqot maqsadi** o'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash va unga oid taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

o'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash (jins, hudud kesimida);

o'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishiga shaxs psixologik muhofaza mexanizmlarining ta'sirini aniqlash va tahlil qilish;

o'smirlardagi subyektiv lokus nazoratning destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllanishidagi ahamiyatini o'rganish va tahlil qilish;

o'smirlar guruhida destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning obykti sifatida** o'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari tanlangan, muammoni o'rganish bo'yicha tajriba-sinov ishlariga Buxoro viloyati Buxoro shahridagi 38-umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-sinf (56 kishi, 28 ta o'g'il, 28 ta qiz), 8-sinf (61 kishi, 30 ta o'g'il, 31 ta qiz), 9-sinf (65 kishi, 33 ta o'g'il, 32 ta qiz), Buxoro shahridagi 17-umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-sinf (26 kishi, 13 ta o'g'il, 13 ta qiz), 8-sinf (37 kishi, 18 ta o'g'il, 19 ta qiz), Navoiy viloyati Navoiy shahrining 20-umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-sinf (64 kishi, 32 ta o'g'il, 32 ta qiz), 8-sinf (72 kishi, 36 ta o'g'il, 36 ta qiz), 9-sinf (39 kishi, 19 ta o'g'il, 18 ta qiz), jami 420 nafar o'smir o'quvchilar respondent sifatida jalb etildi.

**Tadqiqotning predmeti** o'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda suhbat, intervyu metodlari, G.V.Lofovayaning «Virtual olamga qaramlik» testi, Y.S.Kimberli bo'yicha V.A.Loskutova modifikatsiyasidagi «Internetga qaramlikni o'rganish» so'rovnomasi, Kellerman-Plutchikning «Psixologik himoya mexanizmlarini diagnostika qilish» so'rovnomasi, S.R.Panteleyev va V.V.Stolinning «Subyektiv nazorat lokusi xususiyatlarini o'rganish» so'rovnomasi, matematik-statistik metodlardan (foizli tahlil, faktorli tahlil, Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning  $r_p$ -korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash metodlari) foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o'smirlarda virtual olamga qaramlikning namoyon bo'lish darajasiga ko'ra, «internet iste'molchisining» muloqotdagi nokompetentligi ma'lumotlarni saralash, qayta ishlash, uzatish jarayonida vaqtni, fazoni idrok qilish ko'nikmasi susaytirib, destruktiv axborotlarga nisbatan agressiv moyillikni kuchaytirganligi bilan bog'liq differensial farqlar tufayli mafkuraviy immunitetni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning hududiy jihatlari aniqlashtirilgan;

o'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni

shakllanishida ma'lumotlarni «saralash», «himoyalash» va «qarshi kurash» funksiyalarini gender xususiyatlarga bog'liq ravishda darajaviy ifodalanishi tufayli shaxsning o'zini-o'zi muhofaza qilish mexanizmlari axborotni adekvat idrok qilishga ta'sir etishi asoslangan;

o'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllanishi iroda kuchi lokalizatsiyasining internalligi psixologik himoya mexanizmining «inkor etish» jihatini, eksternallik esa ma'lumotlarga nisbatan neytral munosabatni kuchaytirganligi tufayli shaxsdagi subyektiv lokus nazoratning dual ta'siriga bog'liq ekanligi dalillangan;

shaxsda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllanishi uchun o'smirlik davridagi avtonomiyalarga bog'liq ravishda virtual olamga moyillikning kuchayib borishi faoliyatga yo'nalganlik, axborotlarni qayta ishlash darajasini pasaytirganligi tufayli «qarshilik kuchi», «daxlsizlik qadriyati» kabi xususiyatlarga korreksion-adaptiv ta'sir etish muhimligi isbotlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

yoshlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirish bo'yicha tadqiqotning samaradorligini ta'minlashda shaxs individual xususiyatlarini inobatga olinishi va o'smir o'quvchilarni axborot iste'molchisi sifatida o'rganishga qaratilgan usullar majmuasi pilotaj tadqiqotlar orqali amaliyotga keng joriy qilingan;

o'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishida zarur sanaladigan yetakchi shaxs xususiyatlarini aniqlash o'smirlarda vayronkor va destruktiv axborot oqimiga nisbatan qarshilik ko'rsatish, o'zini o'zi muhofazalash ko'nikma, malakalarining erta rivojlantirishi hamda o'quv faoliyati samaradorligini oshishiga xizmat qiluvchi yangi tadqiqot yo'nalishi sifatida tavsiya qilingan;

o'smirlar faoliyatida yuzaga keladigan virtual qaramlik, ya'ni addiktiv xulq-atvorni oldini olish bo'yicha psixoprofilaktik chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqilgan va amaliy faoliyatda qo'llash uchun tavsiya etilgan;

o'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishining kognitiv, motivatsion va xulq-atvor komponentlariga asoslangan psixotrening mashg'ulotlari ishlab chiqilgan hamda ularning samaradorligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi** ilmiy jihatdan asoslangan, ijtimoiy psixologiya yo'nalishida amaliyotchi mutaxassislar tomonidan keng qo'llanuvchi metodik vositalar, matematik statistikaning turli darajadagi (birlamchi va yuqori darajalardagi) metodlari kompleks qo'llanganligi; respondentlar tanlanma to'plamining hajmi psixologik tadqiqotlarda tavsiya etilgan talablar asosida ishlab chiqilganligi; ilmiy-nazariy tahlil, natijalar sharhini ishonchli manbalarga asoslanganligi; asosiy holatlar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bevosita uning ilmiy yangiligidan kelib chiqib, unda olingan o'smir shaxsida ta'lim jarayonida namoyon bo'ladigan addiktiv xulq-atvor profilaktikasiga doir yangi ma'lumotlari «Axborot tizimlarida axborot psixologik xavfsizlik», «Ijtimoiy psixologiya», «Konsultativ psixologiya»,



«Psixodiagnostika» va «Psixokorreksiya» kabi fanlar uslubiy ta'minotini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda amalga oshirilgan tahlillar natijasida olingan o'smirlarda internetga qarshi mafkuraviy immunitet shakllantirish to'g'risidagi bilimlardan axloqiy tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etishda hamda ularning xulq-atvorida internetga nisbatan qaramlikni yosh va jins tafovutlariga oid xususiyatlari bilan izohlangan. O'smirlarning destruktiv axborotlarga nisbatan aniq belgilanagan shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Shuningdek, psixoprofilaktik choratadbirlarni o'z ichiga qamrab olgan amaliy tavsiyalar xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatni tashkil etishda, ya'ni o'smir yoshidagi 5-9-sinf o'quvchilaridagi inqiroz davri bilan bog'liq tahlikali holatlarni korreksiyalash, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan destruktiv axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirish orqali turli ichki, tashqi destruktiv tahdidlarni bartaraf qilishda uslubiy asos sifatida xizmat qilishi bilan tavsiflanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy etilishi.** O'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o'smirlarda virtual olamga qaramlikning namoyon bo'lish darajasiga ko'ra, «internet iste'molchisining» muloqotdagi nokompetentligi ma'lumotlarni saralash, qayta ishlash, uzatish jarayonida vaqtni, fazoni idrok qilish ko'nikmasi susaytirib, destruktiv axborotlarga nisbatan agressiv moyillikni kuchaytirganligi bilan bog'liq differensial farqlar tufayli mafkuraviy immunitetni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning hududiy jihatlari aniqlashtirilganligi to'g'risidagi taklif Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 4-dekabrda PM-96-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 11-dekabrda PM-96a-son ma'lumotnomasi). Natijada o'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillari (jins, hudud kesimida) aniqlangan;

o'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllanishida ma'lumotlarni «saralash», «himoyalash» va «qarshi kurash» funksiyalarini gender xususiyatlarga bog'liq ravishda darajaviy ifodalanishi tufayli shaxsning o'zini-o'zi muhofaza qilish mexanizmlari axborotni adekvat idrok qilishga ta'sir etishi asoslanganligiga doir tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 4-dekabrda PM-96-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 11-dekabrda PM-96a-son ma'lumotnomasi). Natijada o'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishiga shaxs psixologik muhofaza mexanizmlarining ta'siri aniqlangan va tahlil qilingan;

o'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllanishi iroda kuchi lokalizatsiyasining internalligi psixologik himoya mexanizmining «inkor etish» jihatini, eksternallik esa ma'lumotlarga nisbatan neytral munosabatni kuchaytirganligi tufayli shaxsdagi subyektiv lokus

nazoratning dual ta'siriga bog'liq ekanligi dalillanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 4-dekabrda PM-96-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Rivojlanish psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 11-dekabrda PM-96a-son ma'lumotnomasi). Natijada o'smirlardagi subyektiv lokus nazoratning destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllanishidagi ahamiyati o'rganilgan va tahlil qilingan;

shaxsda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllanishi uchun o'smirlar davridagi avtonomiyalarga bog'liq ravishda virtual olamga moyillikning kuchayib borishi faoliyatga yo'nalganlik, axborotlarni qayta ishlash darajasini pasaytirganligi tufayli «qarshilik kuchi», «daxlsizlik qadriyati» kabi xususiyatlarga korreksion-adaptiv ta'sir etish muhimligi isbotlanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 4-dekabrda PM-96-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 11-dekabrda PM-96a-son ma'lumotnomasi). Natijada o'smirlar guruhida destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturini ishlab chiqish va uning samaradorligi baholangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 130 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zarurati, maqsad va vazifalar belgilangan, metodlar, obyekt va predmet ko'rsatilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda tadbiq etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**O'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishi ijtimoiy-psixologik muammo sifatida**» deb nomlangan birinchi bobida destruktiv axborot fenomeni, uning ko'rinishlari, mexanizmlari, xulq-atvorda namoyon bo'lishi va shakllarini ifodalovchi asosiy nazariy tushunchalarning tahliliy sharhi keltirilgan. Shuningdek, masalani Sharq va G'arb olimlarining tadqiqotlarida o'rganilgan.

Har qanday axborotning mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan shaxs, jamiyat, davlat mutanosibligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ana shu

jihtadan qaraganda, o‘smirlarni destruktiv axborotlardan himoyalashda psixologik muhofaza juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan mazkur bobda destruktiv axborotlarga qarshi mafkuraviy immunitet shakllantirish va axborot xavfsizligi muammosining nazariy-metodologik masalalari, o‘smirlarning psixologik himoyasi, virtual olami, axborot tashkilotlar faoliyati, jamiyatimizda destruktiv axborotlarni oldini olish va mafkuraviy profilaktika borasida ishlar tadqiq qilingan. Salbiy axborotlar bilan bog‘liq muammolarni o‘zbek olimlaridan Sh.Akramova, O.Abbosxo‘jayev, Z.Qosimova, S.Otamuratov, A.Ochildiyev, J.J.Obloqulov, S.Y. Kulatova, M.Qur‘onov, R.Qo‘chqorov, I.I.Raximova, F.Ravshanov, N.Umarova va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Xorij olimlaridan A.Kaplan, P.Djerrold, B.Skinner, K.Rodgers, P.Byukenen, A.Bandura, A.Villi, E.Dyurkgeym, P.Jane, K.Byuler, V.Metyuza, Dj.Bruner, S.Xoll, U.Djeyms va boshqalar tomonidan axborotni «saralash», «himoyalash» va «qarshi kurash» funksiyalarining psixologik xususiyatlari tadqiq qilingan.

Mashhur siyosatshunos olim P.Byukenen o‘zining “G‘arbning halokati” publitsistik asarida shunday yozadi: “...axborot-media madaniyatlararo to‘qnashuvda o‘ziga xos musobaqa quroli, yoshlar ongi va qalbini zabt etishning eng zo‘r hamda ishonchli vositasiga aylandi”. Shuning barobarida destruktiv axborotlar ham insoniyat halokatining asosi bo‘lishi tabiiydir deb ta’kidlaydi. Demak, axborotni foydali tomonlari bilan birga uning salbiy jihatlari ya’ni, uning destruktivligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**O‘smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishining amaliy asoslari**» deb nomlanib, mazkur bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo‘llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o‘tkazish tartibi, olingan natijalarning tahlili va korrelyatsion bog‘lanishlar o‘z aksini topgan.

Jumladan, tadqiqotimiz empirik bosqichida dastlab G.V.Lofovaya tomonidan ishlab chiqilgan va sinovdan o‘tkazilgan 13 shkalada «Virtual olamga qaramlik» ni aniqlab beruvchi testning ochiq axborot tizimiga qaramlikni uch shkalada aniqlab beruvchi variantini sinaluvchilar hukmiga havola qildik va quyidagicha empirik natijalarni qo‘lga kiritdik (1-jadvalga qarang).

**1-jadval.**

**O‘smirlar xulq-atvorida virtual olamga qaramlikni namoyon bo‘lish xususiyatlari bo‘yicha empirik natijalar (n=420)**

Shkalalar	O‘rtacha (M)		t	p
	Buxoro viloyati (n=245)	Navoiy viloyati (n=175)		
Televizorga bo‘lgan qaramlik	12,2	9,8	-2,30	0,005
Onlayn kompyuter o‘yinlariga bo‘lgan qaramlik	10,7	10,2	-1,01	0,150
Faoliyatga yo‘nalganlik	15,2	14,9	-0,73	0,052
Qaramlikka bo‘lgan umumiy moyillik	8,3	11,2	-2,24	0,005

Izoh: \*p≤0,05; \*\*p≤0,01; \*\*\*p≤0,001.

O'smirlar xulq-atvorida virtual olamga qaramlikni namoyon bo'lish xususiyatlari bo'yicha olingan natijalar tahliliga o'tadigan bo'lsak, bunda Buxoro hamda Navoiy viloyatlarida tahsil olayotgan respondentlar orasida «televizorga bo'lgan qaramlik» ( $t=-2,30$ ;  $p\leq 0,005$ ) va «qaramlikka bo'lgan umumiy moyillik» ( $t=-2,24$ ;  $p\leq 0,005$ ) omillarida ishonchli farqlar kuzatildi. Jumladan, Buxoro viloyatidagi o'smirlarda o'rta darajadagi moyillik qayd etilgan bo'lsa, Navoiy viloyatidagi respondentlarda moyillik nisbatan past darajada ekanligi namoyon bo'ldi. Empirik natijalar ochiq axborotlar tizimi tarkibiga kiruvchi ommaviy axborot manbalari ichida televideniya uzoq yillardan beri axborot iste'molchilariga masofadan turib o'z ta'sirini ko'rsatib kelayotganligini yana bir bor tasdiqladi. Bu ta'sir ostida axborot iste'molchilar auditoriyasiga mos turli toifaga mansub xulq-atvor namunalarini shakllanganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Binobarin, addiktiv xulq-atvor birdaniga yuzaga keladigan holat hisoblanmaydi. Qaramlik obyektiv borliqning uzluksiz jarayonida shakllanib, rivoj topib boradi. Bugungi kunda mamlakatimizda televideniya kirib bormagan shahar va qishloq xonadonlar deyarli qolmagan. Televideniya insonlar uchun nafaqat ko'ngilochar ko'rsatuvlarni tomosha qilish imkoniyatini yaratadi balki, kunlik qabul qilayotgan axborotimizning salmoqli qismini u orqali o'zlashtiramiz. Oxirgi o'n yilda televideniya ta'sirining nisbatan kamayib borayotganligi, ommaviy axborot vositalari sohasida ijtimoiy tarmoqlarning faollashuvi kuzatilayotgan bo'lsa-da, televideniya o'ziga xos muhim yutuqlari hisobiga hali hanuz axborot iste'molchilari uchun barqaror manbaligicha qolmoqda. Buning sababi o'laroq, televideniye hali ham ijtimoiy g'oyalarni aholiga yetkazishda tezkor, shu bilan birga qudratli vositalardan biri hisoblanadi. Ayni paytda mahalliy televideniya kanallarini ham qo'shib hisoblaganda anchagina televizion kanallar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ushbu kanallar orqali axborot muntazam ravishda o'z iste'molchilariga yetkazib berilmoqda.

Keyingi «onlayn kompyuter o'yinlariga bo'lgan qaramlik» omilida deyarli ishonchli farqlar kuzatilmadi ( $t=-1,01$ ;  $p\leq 0,150$ ). Har ikkala hudud sinaluvchilarida onlayn kompyuter o'yinlariga bo'lgan qaramlik o'rta darajada ekanligi namoyon bo'ldi. Sababi bugungi kunda mamlakatimiz hududlari bo'ylab internet qamrovining keskin oshishi, internet xizmatlarining «internet provayder» va (yoki) uyali aloqa kompaniyalari tomonidan arzonlashtirilishi hamda ular tomonidan turli ko'rinishda taqdim etilayotgan «bonuslar» hisobiga voyaga yetmaganlarning ko'pchiligi uy sharoitida, masofadan turib onlayn kompyuter o'yinlariga bo'lgan moyilligi oshishi kuzatilmoqda. Darhaqiqat, dunyoda, shu bilan bir qatorda mamlakatimizda ham globallashuv, axborotlashuv jarayonini internetsiz tasavvur etish qiyin. Zamonaviy va yangicha ong asosida voyaga yetayotgan «Z-avlod» vakillari sanalgan o'smirlar ochiq axborot manbai sifatida, asosan, internetga murojaat qilishmoqda.

Metodikamizning keyingi «faoliyatga yo'nalganlik (Faoliyat)» omilida ham ahamiyatli farqlar qayd etilmadi ( $t=0,73$ ;  $p\leq 0,052$ ). Har ikkala guruh respondentlarida faoliyatga ya'ni o'quv jarayonlariga bo'lgan munosabat o'rta darajada ekanligi aniqlandi.

Navbatdagi «qaramlikka bo'lgan umumiy moyillik» omilida sezilarli farqlar kuzatildi ( $t=-2,24$ ;  $p\leq 0,005$ ). Internetga qaramlik omili Navoiy viloyatidagi

o'smirlarda yuqori natijani ko'rsatdi. Psixologik tadqiqotlarda shaxs bioijtimoiy tabiatga ega ekanligi va bu holatga uning ta'sirida kelib chiqadigan oqibatlariga uncha ham e'tibor berilmasligi qayd etilgan. Shu jihatdan biz tadqiqotimiz sharhida bioijtimoiy tabiatni o'smirlar xulqi va ongi shakllanishi uchun yetakchi omil sifatida belgilandi. Shaxsning ongini ongsiz biologik xususiyatlar (shaxsiy va jamoaviy ongsizlik) tashkil etishi nuqtai nazaridan yondashsak, o'smirlardagi xulq-atvor nuqtai nazaridan olganda ochiq axborotlar tizimi orqali tarqatilayotgan turli xildagi axborotlar shaxsga ta'sir ko'rsatadi (1-jadvalga qarang).

Tadqiqotimizni navbatdagi bosqichida Bretforddagi Pittsburg universitetining professori, psixologiya fanlari doktori Kimberli Yang tomonidan ishlab chiqilgan va sinovdan o'tgan «Internetga qaramlik testi»ning V.Loskutova tomonidan modifikatsiyalangan variantini sinaluvchilar hukmiga havola qildik.

O'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishida ularning xulq-atvorida internetga qaramlikni namoyon bo'lish ko'rsatkichini baholar ekanmiz, har ikkala hudud sinaluvchilari orasidan kam sonli o'quvchi sinaluvchilarning «internetdan deyarli foydalanmasligi» ma'lum bo'ldi (2-jadvalga qarang).

## 2-jadval.

### Voyaga yetmaganlar xulq-atvorida internetga qaramlikni namoyon bo'lish ko'rsatkichi (n=420)

Shkalalar	O'rtacha (M)		t	p
	Buxoro viloyati (n=245)	Navoiy viloyati (n=175)		
Internetdan deyarli foydalanmaydi	2,7	2,1	-1,10	0,019
Doimiy internet foydalanuvchisi	9,1	9,2	-2,36	0,030
Internetga ortiqcha ishtiyoq	9,2	11,9	-2,02	0,005
Internetga to'liq qaram	8,1	9,9	-3,01	0,005

Izoh: \*p≤0,05; \*\*p≤0,01; \*\*\*p≤0,001.

Pandemiya sharoitida xalq ta'lim tizimida axborotlar platformasi orqali barcha o'quvchilar uchun onlayn maktabning yo'lga qo'yilishi deyarli barcha o'quvchilarning internet savodxonligini oshishiga va (yoki) ularning internet tarmog'idan foydalanish ko'nikmalarini ma'lum darajada shakllanishiga xizmat qildi. O'z navbatida o'smir o'quvchilar doimiy internet foydalanuvchisi sifatida mavqeining oshib borishi, ularning destruktiv axborotlarga nisbatan psixologik xavfsizligini ta'minlash muammosini soha mutaxassislari tomonidan tezkor ravishda hal etish zarurati kun tartibiga qo'yildi. Buning asosiy sababi onlayn o'qish bo'lib, deyarli barcha o'quvchilarda internet tarmog'idan foydalanish ko'nikmalari shakllandi.

Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, internetga ortiqcha ishtiyoq Navoiy viloyatidagi o'smir sinaluvchilarda Buxorodagi tengqurlariga nisbatan yuqori natijalarda namoyon bo'ldi (t=-2,02; p≤0,005). Bu ko'rsatkich «virtual olamga qaramlik» so'rovnomasi natijalarini aynan takrorlaydi. Sababi hududlar (Navoiy

shahri)ning optik tolali internet bilan yaxshi ta'minlanishi o'z navbatida o'smirlarda internetga ortiqcha ishtiyoq uyg'onishini keltirib chiqargan ( $t=-3,01$ ;  $p\leq 0,005$ ).

Bu holatni albatta, ijobiy holat sifatida baholash mumkin, qachonki axborot tizimlariga bo'lgan bunday qiziqish jarayonida bilim olish bilan bog'liq konstruktiv qarashlar mavjud, lekin destruktiv qiziqishning salbiy oqibatlari shaxs va jamiyat hayotida qimmatga tushishi mumkin. Ya'ni, bunda o'smirlar psixikasidagi ustuvor «qiziquvchanlik» xususiyati o'rniga «fanatizm» xususiyati shiddat bilan rivojlanadi. Bu esa o'smirlarning axborotni idrok etish xavfsizligini ta'minlashdagi o'smirlilik davri inqiroziga xos xususiyatlari orasida «qarshilik pozitsiyasi», «chidamlilik kuchi», «mas'uliyat yuki», «daxlsizlik qadriyati» kabi xususiyatlarni qaror topshirishni taqozo etadi hamda bu xususiyatlar yordamida «ishqibozlik» xususiyatini korreksiyalashga ehtiyoj paydo bo'ladi (2-jadvalga qarang).

Tadqiqotimiz davomida o'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanganligini o'rganish maqsadida Kellerman-Plutchik psixologik himoya mexanizmlari metodikasidan ham foydalandik. Mazkur metodikani gender jihatdan tahlil qildik va quyidagicha empirik natijalarni qo'lga kiritdik (3-jadvalga qarang).

### 3-jadval.

#### Kellerman-Plutchik metodi orqali qo'lga kiritilgan empirik natijalar (n=420)

Psixologik himoya mexanizmlari	Jinsi	N	O'rtacha qiymat	t	Ishonch darajasi
Inkor etish	qiz bolalar	180	7,7	-0,12	0,123
	o'g'il bolalar	240	8,1		
Siqib chiqarish	qiz bolalar	180	4,3	-2,51	0,005
	o'g'il bolalar	240	6,2		
Regressiya	qiz bolalar	180	7,2	-2,20	0,005
	o'g'il bolalar	240	5,3		
Kompensatsiya	qiz bolalar	180	6,1	-,129	0,143
	o'g'il bolalar	240	6,3		
Proyeksiya	qiz bolalar	180	11,9	-1,02	0,204
	o'g'il bolalar	240	10,8		
O'rin almashtirish	qiz bolalar	180	5,6	1,10	0,230
	o'g'il bolalar	240	5,5		
Intellectualizatsiya	qiz bolalar	180	5,2	-1,59	0,110
	o'g'il bolalar	240	5,4		
Reaktiv ta'lim	qiz bolalar	180	6,2	-1,07	0,412
	o'g'il bolalar	240	6,7		

Izoh: \* $p\leq 0,05$ ; \*\* $p\leq 0,01$ ; \*\*\* $p\leq 0,001$ .

Psixologik himoya mexanizmlari orqali olingan natijalar bo'yicha «siqib chiqarish» ( $t=-2,51$ ;  $p\leq 0,005$ ) hamda «regressiya» ( $t=-2,20$ ;  $p\leq 0,005$ ) omillarida ishonchli darajadagi farqlar namoyon bo'ldi.

Metodikadagi «siqib chiqarish» omili o'g'il bolalarda qizlarga nisbatan yuqori natijani ko'rsatdi. Mazkur holatda, o'smirlardagi negativ fikrlar, yoqimsiz tuyg'ularni ongsiz, beixtiyor ravishda chiqarib tashlash jarayoni, motivatsion

unutish hisoblanadi. Bu mexanizmning faoliyati xavotirlikni pasaytirish jarayoni yetarli bo‘lmaganda hamda siqib chiqarilgan ma’lumotni buzilgan holda anglashga yordam beruvchi boshqa himoya mexanizmlari ishga tushadi.

«Regressiya» psixologik himoya mexanizmiga moyillik o‘g‘il bolalarga nisbatan qizlarda yuqori ekanligi kuzatildi. Psixologik himoya mexanizmida «regressiya» holatlari moslashish holatlarini ongsiz holatda idrok qilinishi bilan bog‘liq. Qizlarda emotsional holatlar regressiv xarakterga ega ekanligini ko‘rsatdi. O‘smir qizlarda emotsional holatlardan ta’sirlanish yuqori darajada ekanligi qayd qilindi. Ular faoliyati davomida biron bir muammoga duch kelishsa, regressiyani oshishiga olib kelishi kuzatildi. Masalan, aksariyat holatlarda yosh bolalarga xos bo‘lgan xususiyatlarni namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi. O‘g‘il bolalarda esa bu holatlar qizlarga nisbatan past, ya’ni ular regressiyaga murojaat qilmasligi ma’lum bo‘ldi. Qolgan mezonlarda esa deyarli ahamiyatli farqlar kuzatilmadi.

Endi, S.R.Panteleyev va V.V.Stolinlar tomonidan modifikatsiya qilingan bo‘lib, subyektiv lokal nazorat metodikasi bo‘yicha olingan natijalar tahliliga o‘tamiz. Bizningcha, o‘smirni internallik va eksternallik darajalari ularni destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishida muhim o‘rin tutadi (4-jadvalga qarang).

**4-jadval.**

**“Subyektiv lokal nazorat” so‘rovnomasi  
bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=420)**

Shkalalar	O‘rtacha (M)		t	p
	Qiz bolalar (n=180)	O‘g‘il bolalar (n=240)		
Internal	10,8	14,2	-3,30	0,005
Eksternal	9,3	11,6	-2,01	0,005

Mazkur omillar bo‘yicha olingan statistik natijalarning gender tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, internallik omilida eng yuqori farq kuzatildi. Yigitlarda qizlarga nisbatan ichki lokus nazorat kuchli ekanligi qayd etildi. Bu esa yigitlarda o‘z hayotlari uchun qizlarga qaraganda ko‘proq mas’uliyatni his qilishlari hamda o‘z hayotida bo‘layotgan yutuqlar, muvaffaqiyatsizliklarga ko‘proq o‘zlarini sababchi deb bilishlari bilan izohlanadi. Qizlarda esa mazkur holat aksincha, ko‘proq boshqalarni ayblash hissi ustunlik qilishi, ya’ni, bu holatni psixologik tahlil qiladigan bo‘lsak, qizlarda yigitlar nisbatan «proyeksiya» mexanizmini ustunligini kuzatishimiz mumkin. Demak, mazkur farqlarni yana bir ta’siri shundaki, ularning jamiyatdagi ijtimoiy roli, vazifalari va mas’uliyatlari bilan bog‘liq.

«Eksternal» lokus nazoratni qizlarga nisbatan yigitlarda ustun bo‘lishi, yigitlarni qizlarga nisbat ko‘proq ko‘cha-kuyda, jamiyatda faolroq bo‘lishlari ularni jinsi, roli, vazifalari bilan ham bog‘liq. Ya’ni, yigitlar qizlarga nisbatan ko‘proq shaxslar bilan muloqotda bo‘lishadi, shuning uchun jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga imkon yaratadi. Demak, yigitlar biladiki, ma’lum bir bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lmasdan turib ular jamiyatda o‘z o‘rniga ega olmaydi, shuning uchun ular imkon qadar ko‘proq tashqariga yo‘nalganligi,

o'zlarining bor imkoniyatlarini boshqalarga ko'rsatishi, shug'ullanayotgan faoliyatlariga bor ichki imkoniyatlarini safarbar etishadi. Demak, yigitlar va qizlarda internal hamda eksternallik omillari ularni internetga, shuningdek, turli axborot ta'sirlarga berilish jarayonida muhim o'rin egallaydi.

Navbatdagi empirik tahlillarimiz natijasida o'smirlardagi subyektiv nazorat lokusi va psixologik himoya mexanizmlari orasidagi bog'liqlikni tekshirish bo'yicha ham empirik ma'lumotlar qo'lga kiritildi (5-jadvalga qarang).

**5-jadval.**

**Subyektiv nazorat lokusi bilan psixologik himoya mexanizmlarining o'zaro korrelyatsiyasi (n=420)**

	<b>Inkor etish</b>	<b>Siqib chiqarish</b>	<b>Regressiya</b>	<b>Kompensatsiya</b>	<b>Proyeksiya</b>	<b>O'rin almashtirish</b>	<b>Ratsionalizatsiya</b>	<b>Reaktiv tuzilma</b>
Internal	0,070(*)	0,024	0,029	-0,006	0,021	-0,04	0,018	-0,046
Eksternal	-0,033	-0,039	-0,004	0,028	-0,004	0,014	-0,024	0,042

